

**QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.06.2020.T.111.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI**

**CHORIYEVA DILSABO NORMAMATOVNA**

**DISKSIMON BURCHAKKESKICHLI EGATSIZ TEKIS  
SHUDGORLAYDIGAN POG'ONASIMON PLUG PARAMETRLARINI  
ASOSLASH**

**05.07.01 – Qishloq xo‘jaligi va melioratsiya mashinalari. Qishloq xo‘jaligi va  
melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalash**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)  
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора  
философии (PhD) по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of  
philosophy (PhD) on technical sciences**

**Choriyeva Dilsabo Normamatovna**

Disksimon burchakkeskichli egatsiz tekis shudgorlaydigan pog‘onasimon plug parametrlarini asoslash ..... 3

**Чориева Дилсабо Нормаматовна**

Обоснование параметров ступенчатого плуга для гладкой пахоты с  
дисковым углоснимом..... 21

**Chorieva Dilsabo Normamatovna**

Justification of the parameters of a stepped plow for smooth plowing with a disk  
angle ..... 39

**E’lon qilingan ishlar ro’yxati**

**Список опубликованных работ**

List of published works..... 43

**QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.03/30.06.2020.T.111.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**QARSHI MUHANDISLIK-IQTISODIYOT INSTITUTI**

**CHORIYEVA DILSABO NORMAMATOVNA**

**DISKSIMON BURCHAKKESKICHLI EGATSIZ TEKIS  
SHUDGORLAYDIGAN POG'ONASIMON PLUG PARAMETRLARINI  
ASOSLASH**

**05.07.01 – Qishloq xo‘jaligi va melioratsiya mashinalari. Qishloq xo‘jaligi va  
melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalash**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2PhD/T3745 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi ([www.qmii.uz](http://www.qmii.uz)) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Mamatov Farmon Murtozevich**  
texnika fanlari doktori, professor

**Rasmiy taqrizchilar:**

**Musurmonov Azzam Turdiyevich**  
texnika fanlari doktori, dotsent

**Normirzayev Abduqayum Raximberdiyevich**  
texnika fanlari nomzodi, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**"TIQXMMI" MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti**

Dissertatsiya himoyasi Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti huzuridagi PhD.03/30.06.2020.T.111.02 raqamli ilmiy kengashning 2023-yil «15 » avgust soat 10<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 180100, Qarshi sh., Mustaqillik shox ko'chasi, 225-uy. Tel.: (+99875) 221-09-23, faks: (+99875) 224-13-95, e-mail: [qmii@qmii.uz](mailto:qmii@qmii.uz)).

Dissertatsiya bilan Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (76-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 180100, Qarshi sh., Mustaqillik shox ko'chasi, 225-uy. Tel.: (+99875) 221-09-23, faks: (+99875) 224-13-95, e-mail: [qmii@qmii.uz](mailto:qmii@qmii.uz)).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «4 » avgust kuni tarqatildi.

(2023-yil 4.08 dagi №30 raqamli reyestr bayonnomasi).



L.T. Ergashev  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy rafosasi, t.f.d., professor

D.Sh. Chuyanov  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy kotibi, t.f.d., professor

Z.L. Batirov  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, t.f.d., dotsent

## **KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyoda energiyatejamkor va ish sifati yuqori bo‘lgan tuproqqa ishlov berish mashinalari va qurollarni qo‘llash yetakchi o‘rinlardan birini egallamoqda. “Dunyo miqyosida shudgorlashda yerlar 1,87 mlrd. dan ortiq ekanligi”ni hisobga olsak<sup>1</sup>, tuproqqa asosiy ishlov berishda tekis shudgorlaydigan, ish sifati va unumi yuqori hamda energiya-resurstejamkor mashinalar va qurollarni amaliyotga joriy etishni taqozo etadi. Shu jihatdan egatsiz tekis shudgorlaydigan pluglardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyoda ekin ekish uchun dalalarni shudgorlashning energiyatejamkor texnologiyalari va ularni sifatli amalga oshiradigan tuproqqa ishlov beradigan mashinalarning yangi ilmiy-texnikaviy yechimlarini ishlab chiqishga yo‘naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Jumladan, egatsiz tekis shudgorlaydigan pluglar va ularning ishchi qismlarini yaratish, ishlab chiqish, texnologik jarayonlari va parametrlarini asoslash yo‘nalishlaridagi ishlarni ko‘rsatish mumkin. Bu borada, palaxsalarni o‘z egati chegarasida ag‘darib egatsiz tekis shudgorlaydigan disksimon burchakkeskichli pluglarni ishlab chiqish hamda ularning texnologik jarayoni va parametrlarini asoslashga alohida e’tibor berilmoqda.

Respublikamiz qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida mehnat va energiya sarfini kamaytirish hamda ish unumini oshirish imkonini beradigan resurstejamkor tuproqqa asosiy ishlov berish texnik vosita va qurollarni ishlab chiqish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jalogini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasida, jumladan, “...qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat tarmog‘ini modernizatsiyalash, diversifikatsiya qilish va barqaror o‘sishini qo‘llab-quvvatlash uchun xususiy investitsiya kapitali oqimini ko‘paytirishni nazarda tutuvchi sohada davlat ishtirokini kamaytirish va investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish mexanizmlarini joriy qilish, yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish, fermer xo‘jaliklarida ish unumini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash...”<sup>2</sup> vazifalari belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda jumladan, palaxsalarni o‘z egati chegarasida 180° ga ag‘darib dalalarni egatsiz tekis shudgorlaydigan, texnik va texnologik jihatdan modernizatsiyalashgan disksimon burchakkeskichli pog‘onasimon plugni ishlab chiqish hamda uning talablar darajasidagi ish sifatini kam energiya sarflagan holda ta’minlaydigan parametrlarini asoslash muhim vazifalardan hisoblanadi.

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi PF-5853-son “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jalogini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni va 2019-yil 31-iyuldaggi PQ-4410-son “Qishloq xo‘jaligi mashinasozligini jadal rivojlantirish, agrar sektorni qishloq xo‘jaligi texnikalari bilan ta’minlashni davlat tomonidan qo‘llab quvvatlashga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi

<sup>1</sup>[www.fao.org/docrep/018/i1688r/i1688r03.pdf](http://www.fao.org/docrep/018/i1688r/i1688r03.pdf)

<sup>2</sup>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktabrdagi PF-5853-son “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi Qarori

qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining II. “Energetika, energiya va resurstejamkorlik” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Tekis shudgorlaydigan pluglarni ishlab chiqish va qo‘llash, ular ishchi qismlarining parametrlarini asoslash bo‘yicha L.C.Kaufman, D.S.Totten, K.Shoji, V.A.Sakun, B.M.Shmelev, Y.P.Lobachevskiy, M.Maksimenko, V.G.Kiryuxin, S.A.Trostyanskiy, I.K.Zaxarov, plug ishchi organlari bilan tuproqning o‘zaro ta’sirlashish jarayonlarini o‘rganish bo‘yicha V.P.Goryachkin, G.N.Sineokov, I.M.Panov, P.N.Burchenko, V.V.Blednix, O.A.Sizov, A.A.Vilde, Y.A.Kuznetsov, S.G.Lipitskiy, V.M.Boykov, egatsiz tekis shudgorlaydigan pog‘onasimon pluglarini ishlab chiqish va qo‘llash, ular ishchi qismlarining parametrlarini asoslash bo‘yicha tadqiqotlar V.A.Sakun, B.M.Shmelev, I.M.Panov, Y.P.Lobachevskiy, S.A.Zolotarev va boshqalar tomonidan o‘tkazilgan.

Respublikamiz sharoitida tekis shudgorlash texnologiyalari, texnik vositalarini ishlab chiqish va takomillashtirish yo‘nalishida R.I.Baymetov, A.To‘xtaqa‘ziyev, F.M.Mamatov, A.R.Normirzayev, B.S.Mirzayev, B.G‘aybullayev, egatsiz tekis ishlov beradigan pluglarni yaratish va qo‘llash bo‘yicha F.M.Mamatov, I.T.Ergashev, H.A.Ravshanov, U.P.Boboyev, Sh.B.Qurbanov, X.Q.Pardayev, Sh.Sh.Mirzaxodjayevlar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan.

Ammo, keltirilgan tadqiqotlarda egatsiz tekis shudgorlashni amalga oshiradigan ish sifati va unumi yuqori, energiyatejamkor sferik disk ko‘rinishidagi burchakkeskichli pog‘onasimon plugning parametrlarini asoslash masalalari yetarli darajada o‘rganilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalarini bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Qarshi muhandislik-iqtisodiyot institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining OT-F2-01 “Energiya-resurstejamkor egatsiz tekis shudgorlaydigan kombinatsiyalashgan pluglar va ular asosidagi turli texnologik jarayonlarni bir o‘tishda bajaradigan mashinalarni yaratishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish” (2017-2020 yy.) fundamental hamda OT-Itex-2019-36 “4-sinf traktorlarga tekis shudgorlaydigan plugni ishlab chiqarishga joriy etish” (2018-2019 yy.) mavzusidagi innovatsion loyihalari doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** disksimon burchakkeskichli pog‘onasimon plugning konstruksiyasi va parametrlarini asoslash orqali dalalarni shudgorlashda energiyatejamkorlik va yuqori ish sifatini ta’minlashdan iborat.

### **Tadqiqotning vazifalari:**

dalalarni tekis shudgorlash texnika vositalariga oid ilmiy-texnikaviy ma’lumotlar hamda shu yo‘nalishda ilgari bajarilgan ilmiy-tadqiqot ishlarni tahliliy tadqiq etish;

dalalar tuprog‘ining uni shudgorlash texnologik jarayoniga ta’sir etuvchi fizik-mekanik hamda texnologik xossalalarini aniqlash;

sferik disk ko‘rinishidagi burchakkeskichli pog‘onasimon plugning

konstruksiyasini ishlab chiqish va uning texnologik ish jarayonini asoslash;

pog‘onasimon plug sferik disk ko‘rinishidagi burchakkeskichining maqbul parametrlarini nazariy va tajribaviy asoslash;

disksimon burchakkeskichli pog‘onasimon plugning xo‘jalik sinovlarini o‘tkazish va uning texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarini baholash.

**Tadqiqotning ob’yekti** sifatida shudgorlanadigan dalalar tuprog’ining fizik-mexanik xossalari, sferik disk ko‘rinishidagi burchakkeskichli egatsiz tekis shudgorlaydigan pog‘onasimon plug va uning texnologik ish jarayoni olingan.

**Tadqiqotning predmetini** dalalarni egatsiz tekis shudgorlaydigan sferik disk ko‘rinishidagi burchakkeskichli pog‘onasimon plug ish organlarini tuproq bilan o‘zaro ta’sirlashish jarayonlarini ifodalaydigan analitik bog‘lanishlar va matematik modellar, sferik disk ko‘rinishidagi burchakkeskichli plugning ish ko‘rsatkichlarini uning parametrlari va agregat harakat tezligiga bog‘liq ravishda o‘zgarish qonuniyatlaridan iborat.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida matematik hisoblash qoidalari, nazariy mexanika qonuniyatları, statistik tahlil usullari, pog‘onasimon plugning parametrlarini aniqlashda bir omilli tajribalar va eksperimentlarni matematik rejalshtirish usullari hamda mavjud meyoriy hujjatlarda keltirilgan usullardan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

sferik disk ko‘rinishidagi burchakkkeskich va palaxsani o‘z egati chegarasida  $180^\circ$  ga ag‘daradigan korpuslardan tashkil topgan pog‘onasimon plugning konstruksiyasi va texnologik ish jarayoni talablar darajasida sifatli shudgorlash va kam tortishga qarshilikni ta’minlashini hisobga olinib ishlab chiqilgan;

sferik disk ko‘rinishidagi burchakkeskichning parametrlari palaxsaning ratsional shakli va uni o‘z egati chegarasida sifatli ag‘darilishini hisobga olingan holda aniqlangan;

disksimon burchakkeskich va korpus orasidagi bo‘ylama va ko‘ndalang masofalar palaxsaning deformatsiyalanish zonasini disksimon burchakkeskichning konstruktiv elemenlariga yetib bormaslik shartidan aniqlangan;

plug korpuslari orasidagi bo‘ylama masofa va ochiq egat kengligi palaxsalarni o‘z egati chegarasida sezilarli deformatsiyalanmasdan ochiq kesish sharoitida  $180^\circ$  ga to‘liq ag‘darilishini hisobga olgan holda asoslangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

dalalarni egatsiz tekis shudgorlaydigan, asoslangan parametrarga ega bo‘lgan disksimon burchakkeskichli pog‘onasimon plug ishlab chiqilgan;

ishlab chiqilgan disksimon burchakkeskichli pog‘onasimon plug qo‘llanilganda dalalarni shudgorlash sifati yaxshilanishi, mehnat unumdoorligini oshishi, energiya va mehnat sarflarini kamayishi aniqlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi izlanishlarning zamonaviy usul va o‘lchash vositalaridan foydalangan holda o‘tkazilganligi, nazariy va eksperimental tadqiqotlarning o‘zaro adekvatligi, bajarilgan tadqiqotlar asosida ishlab chiqilgan disksimon burchakkeskichli pog‘onasimon plug sinovlarining ijobiy natijalari va amaliyotga joriy etilganligi bilan asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining

ilmiy ahamiyati palaxsani o‘z egati chegarasida ag‘daradigan disksimon burchakkeskichli pog‘onasimon plugning ishlab chiqilganligi, plug ishchi organlarini tuproq bilan o‘zaro ta’sirlanish jarayonlarini ifodalaydigan matematik modellar va analitik bog‘lanishlar olinganligi hamda ulardan boshqa shunga o‘xshash mashinalarning parametrlarini asoslashda qo‘llash mumkinligi bilan izohlanadi.

Olingen natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan disksimon burchakkeskichli pog‘onasimon plug bilan dalalarga sifatli ishlov berish hisobiga yonilg‘i va mehnat sarfini kamayishi hamda ish unumini oshirishga erishilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Disksimon burchakkeskichli egatsiz tekis shudgorlaydigan pog‘onasimon plugning parametrlarini asoslash bo‘yicha olingen natijalar asosida:

tekis shudgorlaydigan plugga Rossiya Federatsiyasi intellektual mulk bo‘yicha Federel xizmatining foydali modelga patenti olingen (“Tekis shudgorlaydigan plug”, RU № 207103-2021-y.). Natijada disksimon burchakkeskichli pog‘onasimon plugning konstruktiv sxemasini ishlab chiqish imkonи yaratilgan;

disksimon burchakkeskichli egatsiz tekis shudgorlaydigan pog‘onasimon plug Qashqadaryo viloyatining Kasbi tumani fermer xo‘jaliklarida joriy etilgan (Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2023-yil 23-maydagi 05/28-05/2413-son ma’lumotnomasi). Natijada dalalarni shudgorlashda yonilg‘i-moylash materiallari sarfi 13,54 foizga va foydalanish xarajatlari 14,68 foizga kamayishiga erishilgan;

disksimon burchakkeskichli egatsiz tekis shudgorlaydigan pog‘onasimon plugni ishlab chiqarishni o‘zlashtirish uchun loyiha-konstrukturlik hujjatlari (dastlabki talablar, texnik topshiriq, texnikaviy shartlar va chizmalar) «BMKB-Agromash» AJda loyihalash jarayoniga joriy etilgan (Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2023-yil 23-maydagi 05/28-05/2413-son ma’lumotnomasi). Natijada dalalarni egatsiz tekis shudgorlaydigan pog‘onasimon plugni sanoat usulida ishlab chiqarishning texnik imkoniyati yaratilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari jumladan, 4 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 17 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika va 5 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan hamda Rossiya Federatsiyasi intellektual mulk bo‘yicha Federel xizmatining 1 ta foydali modelga patenti olingen.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rtta bob, umumiyl xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etgan.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingen natijalarning

nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish va aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Masalaning qo'yilishi va tadqiqot vazifalari**" deb nomlangan birinchi bobida egatsiz tekis shudgorlash texnologiyalari va ularni amalgaloshiradigan pluglar, burchakkeskichli pluglar konstruksiyalari, palaxsani o'z egatiga ag'darish jarayoni va disksimon burchakkeskichlar bo'yicha ular bo'yicha olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlari tahlil etilgan hamda tadqiqotning maqsadi va vazifalari shakllantirilgan.

Egatsiz tekis shudgorlaydigan pog'onasimon pluglar bo'yicha olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlari natijalariga ko'ra ular bir qator kamchiliklarga ega. Ushbu pluglar bilan tekis shudgorlash texnologiyasi yopiq kesish sharoitida amalgaloshirilganligi uchun ular palaxsalarni talab darajasida ag'darilishini va begona o'tlarni to'liq ko'milishini ta'minlamaydi, yuqori energiyahajmdorlikka ega. Natijada pog'onasimon pluglar dalalarga talab darajasida sifatli ishlov bermaydi va ish unumi esa past.

O'tkazilgan tahlillarning ko'rsatishicha, dalalarga egatsiz tekis ishlov berishda talablar darajasida talablar darajasida palaxsalarni ag'darilishi va begona o'tlarni ko'milishini ta'minlashga hamda energiya sarfi, mehnat va boshqa harajatlarni kamaytirishga disksimon burchakkeskichli pog'onasimon plugni qo'llab erishish mumkin.

Dissertatsiyaning "**Pog'onasimon plug va uning disksimon burchakkeskichining parametrlarini nazariy asoslash**" deb nomlangan ikkinchi bobida disksimon burchakkeskichli egatsiz tekis shudgorlaydigan pog'onasimon plugning konstruktiv sxemasi va uning disksimon burchakkesichi parametrlarini asoslash bo'yicha nazariy tadqiqotlar natijalari keltirilgan.

Dalalarga egatsiz tekis ishlov berishning mavjud texnologiyalari va pluglari, ushbu yo'nalishda o'tkazilgan ilmiy-tadqiqot ishlaringning tahliliga asosida palaxsalarni yarim ochiq egat sharoitida o'z egati chegarasida ag'darishni takomillashgan texnologiyasi va disksimon burchakkeskichli pog'onasimon plugning konstruktiv sxemasi ishlab chiqildi.


Taklif etilayotgan takomillashgan egatsiz tekis shudgorlash texnologiyasida palaxsalarni o'z egati chegarasida  $180^{\circ}$ ga ag'darishdan oldin ularning yuqori qismining o'ng va chap qirralari kesib olinib ko'pburchak shakliga keltiriladi va so'ngra o'z egati chegarasida ag'dariladi (1-rasm). Undan tashqari egat kengligi palaxsa kengligidan katta. Buning natijasida palaxsaning chap *SD* yon qirrasi tomonida yarim erkin bo'shliq, o'ng qirrasi *AV* tomonida esa to'liq erkin bo'shliq hosil bo'ladi. Bunda palaxsani *SD* kam deformatsiyalangan holda tayanch qirrasi atrofida aylanishi amalgaloshiriladi va palaxsani ag'darilishini birinchi bosqichida kam siqiladi. Bu esa palaxsani ag'darishga energiya sarfini kamaytiradi. Yo'naltiruvchi plastina tomonidan ochiq egat hosil bo'lishini ta'minlash uchun birinchi korpusdan keyingi korpuslar uchun egat kengligi palaxsaning kengligiga nisbatan katta bo'lishi lozim, ya'ni

$$B = b_p + b_e, \quad (1)$$

bunda  $B$  – egat kengligi, cm;  $b_p$  – palaxsa eni, cm;  $b_e$  – ochiq egat kengligi, cm.

Bunda birinchi korpusdan keyingi korpuslarning yo‘naltiruvchi plastinasi ochiq egatda harakat qiladi.


Disksimon burchakkeskichli egatsiz tekis shudgorlaydigan pog‘onasimon plugging asosiy ishchi organlari sferik disk ko‘rinishida burchakkeskichlar 1 va 4, bir-biriga nisbatan bo‘ylama yo‘nalishda siljtitib joylashtirilgan o‘ng tomonga ag‘daradigan vintsimon korpuslar 2 va 5, ularning lemexlariga berkitilgan yo‘naltiruvchi plastinalar 3 va 6 dan iborat (2-rasm).



*a* – ishlov berishga qadar dala ko‘ndalang kesimining ko‘rinishi;

*b* – palaxsalarning o‘ng va chap qirralari disksimon burchakkeskichlar bilan kesilgandan so‘ng dala ko‘ndalang kesimining ko‘rinishi; *c* va *d* – palaxsalarni o‘z egati chegarasida ag‘darilish sxemalari

**1-rasm. Tuproq palaxsalarini o‘z egati chegarasida  $180^\circ$  ga ag‘darish texnologiyasining sxemasi**



1 va 4 – sferik disk ko‘rinishidagi burchakkeskichlar; 2 va 5 – korpuslar; 3 va 6 – yo‘naltiruvchi plastinalar

**2-rasm. Pog‘onasimon plug disksimon burchakkeskichi va korpusini o‘zaro joylashishi sxemasi hamda uning parametrlari**

Pog'onasimon plugning ish jarayoni quyidagicha amalga oshiriladi. Birinchi korpus 2 dala qirrasi oldida o'rnatilgan sferik disk ko'rinishidagi burchakkeskich 1  $a_d$  chuqurlikda qo'shni palaxsalarni mos holda chap va o'ng qirralarini kesadi va uni o'ng tomonga palaxsa ustiga ag'daradi, natijada ko'p qirrali palaxsalar shakllantiriladi (2-rasm). Birinchi korpus 2 ning yo'naltiruvchi plastinasiga 3 ning tik qismi ag'daraladigan palaxsani oldingi ag'darilgan palaxsadan ajratadi. Birinchi palaxsa  $\pi/4$  radianga yaqin ma'lum burchakka aylanish momentida ikkinchi korpus 5 ishga tushadi. U ham ikkinchi burchakkesskich 4 yordamida ko'pburchakli palaxsa shakllantiradi va uni birinchi korpus 2 tomonidan hosil qilingan ochiq egatda harakat qilayotgan yo'naltiruvchi plastina 6 tomonga ag'daradi. Palaxsani o'z egati chegarasida keyingi aylanishi korpus va zaplujniklarni birgalikda ta'siri ostida amalga oshiriladi. Bu esa shudgorlash sifatini yaxshilaydi va plugning tortishga qarshilikni kamaytiradi.

Quyidagilar pog'onasimon plugning sifat ko'rsatkichlari va tortishga qarshiligiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy parametrler hisoblanadi: korpuslar orasidagi bo'ylama masofa  $L_k$ ; korpuslarning qamrash kengligi  $b_k$ ; korpuslar orasidagi ochiq egat kengligi  $b_e$ ; sferik disk ko'rinishidagi burchakkeskich va korpus orasidagi bo'ylama  $L_d$  va ko'ndalang  $S_k$  masofalar hamda disksimon burchakkeskichning parametrleri.

**Korpuslar orasidagi bo'ylama masofani asoslash.** Plug korpuslar orasidagi bo'ylama masofani qo'shni palaxsalarni aylanishini birinchi bosqichida to'siqlarsiz ko'tarilishi shartidan S.Zolotaryov tomonidan taklif qilingan quyidagi ifoda bo'yicha aniqlaymiz

$$L_k = \frac{\mu a_p}{\pi} \beta_t, \quad (2)$$

бунда  $\mu$  – palaxsani buralish uzunligini uning qalinligiga nisbatini xarakterlaydigan koefitsiyent,  $\mu=7-8$ ;  $\beta_t$  – birinchi palaxsaga to'liq buralgan vaqttagi ikkinchi palaxsani buralish burchagi, °;  $a_p$  – palaxsaning qalinligi, cm.

Palaxsani o'z egati chegarasida 180 gradusga ag'darilish jarayonida uning hisobiy qalinligi  $a_h$  kattalashadi. Uni quyidagi ifoda bo'yicha aniqlash mumkin

$$a_h = a_p + \delta a_p, \quad (3)$$

$a_h$  ning qiymatini (3) ifoda bo'yicha (2) ifodaga qo'yib olamiz

$$L_k = \frac{\mu(a_p + \delta a_p)}{\pi} \beta_t, \quad (4)$$

bunda  $\delta$  – palaxsaning qalinligini kattalashish koefitsiyenti.

Ilgari o'tkazilgan tadqiqotlarga asosan palaxsani o'z egati chegarasida 180 gradusga buralganda uning qalinligini kattalashish koefitsiyenti  $\delta=18-23$  foizni tashkil qiladi.

$a_p=20-26$  cm,  $\delta=0,2$ ,  $\beta_t=34^\circ$  va  $\mu=7$  qabul qilinib, (4) ifoda bo'yicha o'tkazilgan hisoblar korpuslar orasidagi bo'ylama masofa 31,58-41,05 cm oralig'ida bo'lishi lozimligini ko'rsatdi.

Ochiq egat kengligini S.Zolotaryov tomonidan taklif qilingan quyidagi ifoda bo'yicha aniqlaymiz

$$b_e = -\sin(\beta_t - \beta_d - \theta) \frac{a}{\cos \theta}, \quad (5)$$

bunda  $\beta_d$  – palaxsa qirra zonasini texnologik zarur dastlabki deformatsiyalanish burchagi,  $\beta_d = \beta_t - \beta_e$ , °;  $\beta_t$  – palaxsani erkin aylanish nazariy burchagi, °;  $\theta$  – palaxsaning yon qirrasini tikka nisbatan qiyalik burchagi,  $\theta = 20-25$ °.

$a_p=20-26$  cm,  $\beta_t=45$ °,  $\beta_d=10$ ° va  $\theta=20$ ° qabul qilinib, (5) ifoda bo'yicha o'tkazilgan hisoblar ochiq egat kengligi 5,5-7,15 cm oralig'ida bo'lishi lozimligini ko'rsatdi.

**Sferik diskimon burchakkeskichning asosiy parametrlari.** Diskimon burchakkeskichning diametri  $D_{sd}$  ni u bilan dala yuzasidagi o'simlik qoldiqlarini kesib ketish shartidan H.Ravshanov tomonidan taklif qilingan ushbu ifoda orqali aniqlaymiz.

$$D_{sd} \geq \frac{D_m \cos 2\varphi_{min} + (D_m + 2a_{dmax})}{1 - \cos 2\varphi_{min}}. \quad (6)$$

bunda  $D_m$  – o'simlik qoldiqlarining diametri, m;  $a_{dmax}$  – diskni maksimal ishlov berish chuqurligi, m;  $\varphi_{min}$  – o'simlik qoldiqlarini tuproq yuzasi bo'yicha eng kichik ishqalanish burchagi, gradus.

$D_m=2$  cm,  $\varphi_{min}=30$ °-35° va  $a_{dmax}=11$  cm qabul qilinib, (6) ifoda bo'yicha o'tkazilgan hisoblar diskli ish organning diametri 375,1-500 mm bo'lishi lozimligini ko'rsatdi. Ushbu olingan natija asosida DAST 198-75 bo'yicha diskning diametrini 480 mm qabul qilamiz.

**Sferik diskimon burchakkeskich va korpuslarni o'zaro joylashishini asoslash.** Diskimon burchakkeskichning ish jarayonida u bilan ag'darilgan tuproq bo'laklari yon tomondagi palaxsa ustida joylashishi lozim. Aks holda diskimon burchakkeskich bilan ag'darilgan palaxsaning tuproq zarralari oldingi korpus bilan ag'darilayotgan palaxsani o'z egati chegarasida ag'darilishiga xalaqit beradi va texnologik jarayon buzilishi mumkin. Tuproq zarralari belgilangan masofadan uzoqqa otilganda ular oldingi korpus bilan ag'darilayotgan palaxsaga tegadi va egat tubiga tushadi. Diskimon burchakkeskich bilan ag'darilgan tuproq zarralari oldingi korpus elementlari va u ag'darayotgan palaxsaga tegmasligi hamda egat tubiga tushmasligi uchun quyidagi shart bajarilishi lozim


$$L_u < 2\sqrt{a_d(2R-a_d)} \sin \alpha \cos \gamma - b_k. \quad (7)$$

(7) ifoda bo'yicha  $b_k=52,5$  cm,  $a_d=11$  cm,  $R=24$  cm,  $\alpha=35$ ° va  $\gamma=10$ ° qabul qilgan holda o'tkazilgan hisoblar diskimon burchakkeskich bilan ag'darilgan tuproq zarralari uzoqqa otish masofasi 29 cm dan katta bo'lmasligi lozimligini ko'rsatdi.


3-rasmga asosan tuproq bo'lagining ko'ndalang uloqtirish masofasi  $L_u$  ni aniqlash uchun qo'yidagi ifoda olindi

$$L_u = ctg \varphi_t \sqrt{\frac{2 \left[ \left( a_d - \frac{D}{2} \right) \sqrt{a_d(D-a_d)} \right] + \frac{D^2}{4} \left[ \arcsin \left( \frac{2a_d}{D} - 1 \right) + \frac{\pi}{2} \right]}{ctg \varphi_k + ctg \varphi_t}} \sin \alpha + \\ + ctg \varphi_t \sqrt{\frac{2 \left[ \left( a_d - \frac{D}{2} \right) \sqrt{a_d(D-a_d)} \right] + \frac{D^2}{4} \left[ \arcsin \left( \frac{2a_d}{D} - 1 \right) + \frac{\pi}{2} \right]}{ctg \varphi_k + ctg \varphi_t}} \sin \alpha. \quad (8)$$

bunda  $\varphi_t$  – tabiiy qiyalik burchagi, °;




**3-rasm. Disksimon burchakkeskich bilan ag‘darilgan tuproq zarralarini uzoqqa otish masofasini asoslashga doir sxema**



**4-rasm. Disksimon burchakkeskich bilan tuproq bo‘laklarining ko‘ndalang uloqtirilish masofasini aniqlashga doir sxema**

(8) ifoda bo‘yicha  $\varphi_k = \varphi_t = \varphi_o = 40^\circ$  qabul qilib sferik disk bilan tuproq bo‘lagining ko‘ndalang uloqtirilish masofasi  $L_u$  ni aniqlaymiz. Tuproq bo‘lagining ko‘ndalang uloqtirilish masofasi  $L_u$  ni sferik disk ko‘rinishidagi burchakkeskichning tuproqqa botish chuqurligi ( $a_d$ ), diskmon burchakkeskichning diametri ( $D_{sd}$ ), uni harakat yo‘nalishi ( $\alpha$ ) ga va bo‘ylama tik tekislikka nisbatan o‘rnatish burchagi ( $\gamma$ ) ga bog‘liq o‘zgarish grafiklari 5-rasmida keltirilgan.



**5-rasm. Tuproq bo‘lagining ko‘ndalang uloqtirilish masofasi ( $L_u$ ) ni diskmon burchakkeskichning diametri ( $D_{sd}$ ) va uni harakat yo‘nalishiga ( $\alpha$ ) va bo‘ylama tik tekislikka nisbatan o‘rnatish ( $\gamma$ ) burchaklari, burchakkeskichni ishlov berish chuqurligi ( $a_d$ ) ga bog‘liq grafiklari**

5-rasmda keltirilgan grafiklardan ko‘rinib turibdiki, tuproq bo‘laklarini ko‘ndalang uloqtirilish masofasi  $L_u$  disksimon burchakkeskichning diametri  $D_{sd}$ , uni harakat yo‘nalish  $\alpha$  va bo‘ylama tik tekislikka nisbatan o‘rnatish  $\gamma$  burchaklari hamda burchakkeskichning ishlov berish chuqurligi ad ning ortishi bilan ortgan.

(8) ifoda bo‘yicha hisoblar hamda 5-rasmga asosan disksimon burchakkeskichning diametri 480 mm dan, uni harakat yo‘nalishiga nisbatan o‘rnatilish burchagi  $35^\circ$  dan, bo‘ylama tik tekislikka nisbatan o‘rnatish burchagi  $10^\circ$  dan va ishlov berish chuqurligi 11 cm dan katta bo‘lmasligi kerak.

Disksimon burchakkeskich markazidan korpus ag‘dargichigacha ko‘ndalang masofani quyidagi ifoda bo‘yicha aniqlaymiz

$$S_k = R \sin \gamma. \quad (9)$$

(9) ifoda bo‘yicha  $R=24$  cm va  $\gamma=8^\circ-10^\circ$  bo‘lganda disksimon burchakkeskich markazidan korpus ag‘dargichigacha ko‘ndalang masofa 3,34-4,17 cm ni tashkil qiladi. Qabul qilamiz 4,17 cm.

Disksimon burchakkeskich bilan korpus orasidagi bo‘ylama masofani korpus ta’sirida deformatsiyalangan tuproq zonasini disksimon burchakkeskichga yetib bormasligi shartidan aniqlaymiz.

2-rasmda keltirilgan sxemaga asosan korpusdan disksimon burchakkeskichgacha bo‘ylama yo‘nalishda o‘rnatilish masofasini quyidagi ifoda bo‘yicha aniqlaymiz

$$L_d \geq (a - a_d) \operatorname{tg}(\varepsilon_l + \varphi), \quad (10)$$

bunda  $\varepsilon_l$  – lemexni egat tubiga nisbatan o‘rnatish burchagi,  $^\circ$ .

(10) ifoda bo‘yicha  $a_{kmax}=26-20$  cm,  $a_d=11$  cm,  $\varepsilon_l=34^\circ$  va  $\varphi=25^\circ$  qabul qilgan holda o‘tkazilgan hisoblar korpus bilan sferik disk orasidagi bo‘ylama masofa 23,3-16,67 cm oralig‘ida bo‘lishi lozimligini ko‘rsatdi.

Disksimon burchakkeskichli pog‘onasimon plugning tortishga qarshiliginini aniqlash uchun quyidagi ifoda olindi

$$\begin{aligned} P_{nl} = & n_b \frac{D_{sd} \sin \alpha}{2h_1} \left[ h_1^2 \arccos \frac{h_1 - a_d}{h_1} - (h_1 - a_d) \sqrt{h_1^2 - (h_1 - a_d)^2} \right] (K_1 + \varepsilon_l V^2) + \\ & n_k 2\rho_0 a_p b_p V_p^2 (1 - f_v \cos \beta_l + f \sin \varepsilon_l \sin \gamma_l) + \\ & n_k f \rho_0 a_p b_p f_v V_n^2 \sin \alpha_0 (\sin \beta_0 \frac{l_3 a_3}{ha} + \sin^2 \varepsilon_l \operatorname{tg} \gamma_l) + \\ & + n_k f \frac{l_3 a_3}{a_d} \left[ \frac{a_p}{4} \tau_{pr} + \frac{1}{2} \left( \frac{a_p}{2} - \Delta a \right) \sigma_{sj} \right] + \\ & + n_k f \left( b_p - \frac{a_p \sqrt{2}}{4} \right) \left[ \operatorname{ctg} \gamma_l \frac{a_p}{4} \tau_{pr} + \frac{1}{2} \left( \frac{a_p}{2} - \Delta a \right) \operatorname{ctg} \gamma_l \sigma_{sj} \right] \cdot \frac{\sin \varepsilon_l}{\cos \gamma_l} + \mu_k Q_z. \end{aligned} \quad (11)$$

Bu ifodaning tahlili shuni ko‘rsatdiki, disksimon burchakkeskichli pog‘onasimon plugning tortishga qarshiligi korpus, disksimon pichoq va burchakkeskichning parametrлари ( $n_d$ ,  $K_d$ ,  $a_d$ ,  $a_3$ ,  $l_3$ ,  $a$ ,  $\beta$ ,  $\gamma$ ,  $\varepsilon$ ,  $\delta$ ), ularning ishlov berish


chuqurligiga ( $a, b, a_b, b_b, a_d$ ), tuproqning fizik-mexanik xossalari ( $\tau, \psi_1, \rho_0, f_v, q, f, i_{max}$ ) hamda aggregatning harakat tezligiga bog'liq ekan. Adabiyot manbalari hamda o'zimiz tomonimizdan o'tkazilgan tadqiqotlar asosida  $n_d=5$ ,  $K_d = 180$  Pa,  $a_d=11$  cm,  $n_b=5$ ,  $n_k=4$ ,  $a_p=0,25$  m,  $b_p=0,525$  m,  $\mu_k=0,2$ ;  $Q_z=11$  kN;  $\rho_0=1410$  kg/m<sup>3</sup>,  $f_v=0,9$ ,  $\beta_1=28^\circ$ ,  $\alpha_0=27^\circ$ ,  $\beta_0=23^\circ$ ,  $l_3=0,35$  m,  $a_3=0,18$  m,  $h=0,498$  m va  $q=6$  N/cm<sup>3</sup> qabul qilinib, (11) ifoda bo'yicha o'tkazilgan hisoblar 1,7-2,2 m/s tezlik oralig'ida disksimon burchakkeskichli pog'onasimon plugning tortishga qarshiligi 22,13-23,55 kN ni tashkil etishini ko'rsatdi.

Dissertatsiyaning **"Disksimon burchakkeskichli egatsiz tekis shudgorlaydigan pog'onasimon plug parametrlarini asoslash bo'yicha o'tkazilgan eksperimental tadqiqotlar natijalari"** deb nomlangan uchinchi bobida tadqiqotlarni o'tkazish uchun ishlab chiqilgan laboratoriya dala qurilmasining tuzilishi, disksimon burchakkeskichning parametrlari, disksimon burchakkeskichni pog'onasimon plugda o'rnatish sxemasi, korpuslar orasidagi bo'ylama masofa, disksimon burchakkeskich hamda va korpus orasidagi bo'ylama masofa hamda korpuslar orasidagi ochiq egat kengligini asoslash bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlarning natijalari keltirilgan.

Eksperimental tadqiqotlar ikki bosqichda olib borildi. Birinchi bosqichda disksimon burchakkeskichning parametrlari, disksimon burchakkeskichni pog'onasimon plugda o'rnatish sxemasi, korpuslar orasidagi bo'ylama masofa, disksimon burchakkeskich hamda va korpus orasidagi bo'ylama va ko'ndalang masofalar hamda korpuslar orasidagi ochiq egat va ish tezligini pog'onasimon plugning sifat ko'rsatkichlari va tortishga qarshiliga ta'sirini, ikkinchi bosqichda esa tajribalarni matematik rejalahtirish usuli qo'llanilib, ko'p omilli tajribalar o'tkazildi. Har ikkala bosqichda ham tajribalar Kasbi tumanidagi fermer xo'jaliklarining bug'doydan bo'shagan dalalarida olib borildi.

**Disksimon burchakkeskichni o'rnatish sxemasini pog'onasimon plugning ish ko'rsatgichlariga ta'siri.** Tajribalarda plugning quyidagi variantlarini nisbiy sinovlari o'rGANildi: disksimon burchakkeskichsiz pog'onasimon plug (*a*); disksimon burchakkeskichning ishchi yuzasi korpusning ishchi yuzasiga teskari joylashgan sxema (*b*); disksimon burchakkeskich ishchi yuzasi korpuslar bilan palaxsani ag'darilish tomoniga qaratilgan sxema (*s*). Olingan natijalar tahlili ko'ra, kam energiya sarflagan holda talab darajasidagi o'simlik qoldiqlarini ko'milishi va dala yuzasidagi o'rkachlar balandligini ta'minlash uchun disksimon burchakkeskichning ishchi yuzasi korpuslar bilan palaxsani ag'darilish tomoniga qaratilgan bo'lishi maqsadga muvofiq.


O'tkazilgan bir omilli eksperimental tadqiqotlarning natijalari shuni ko'rsatdiki, disksimon burchakkeskichli pog'onasimon plug 1,7-2,2 m/s ish tezliklarida kam energiya sarflagan holda talab darajasida shudgor sifatini ta'minlashi uchun disksimon burchakkeskichni harakat yo'nalishi nisbatan o'rnatish burchagi 33-35° oralig'ida, tikkaga nisbatan o'rnatish burchagi esa 8-10° oralig'ida bo'lishi lozim.



1 –  $a_k=20$  cm; 2 –  $a_k=23$  cm; 3 –  $a_k=26$  cm

**6-rasm. O'simlik qoldiqlarini ko'milish darajasi ( $K_u$ ), shudgor yuzasi notekisliklar balandligi ( $U_n$ ) va qurilmaning tortishga qarshiligi ( $R$ )ni agregat tezligi ( $V$ ) ga bog'liq ravishda o'zgarish grafiklari**

**Disksimon burchakkeskichning ishlov berish chuqurligini plugning ish ko'rsatkichlariga ta'siri.** Keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, qurilmaning har ikkala tezliklarida disksimon burchakkeskichning ishlov berish chuqurligi 7 cm dan 15 cm gacha ortishi o'simlik qoldiqlarini ko'milish darajasi qabariq parabola qonuniyati bo'yicha avval ortgan, so'ngra kamaygan, o'rkachlar balandligi botiq parabola bo'yicha avval kamaygan so'ngra esa ortgan, plugning tortishga qarshiligi esa botiq parabola qonuniyati bo'yicha oshgan. Disksimon burchakkeskichning ishlov berish chuqurligini 10,45-13 cm oralig'ida o'simlik qoldiqlarini ko'milish darajasi 90 foiz va undan katta, o'rkachlarning balandligi esa 5 cm dan kichik. Buni  $a$  ning 10,45-13 cm oralig'idiagi qiymatlarida korpuslar yarim ochiq egat sharoitida ishlashi, aylanish jarayonida palaxsalarning qirralarini deformatsiyalanmasligi bilan izohlash mumkin. Disksimon burchakkeskichning ishlov berish chuqurligini 10,45 cm dan kichrayishi bilan palaxsani aylanish jarayonida uning qirralarini deformatsiyalanishi, ya'ni siqilishi va parchalanishi oshib boradi. Bu o'z navbatida plugning agrotexnik ko'rsatgichlarini yomonlashtiradi va tortishga qarshiliginи oshiradi.




1 -  $V=1,7$  m/s; 2 -  $V=2,2$  m/s

**7-rasm. O'simlik qoldiqlarini ko'milish darajasi ( $K_u$ ), shudgor yuzasi notekisliklar balandligi ( $U_n$ ) hamda qurilmaning tortishga qarshiligi ( $R$ ) ni disksimon burchakkeskichning ishlov berish chuqurligi ( $a_d$ ) ga bog'liq ravishda o'zgarish grafiklari**

Olingan natijalar tahlili ko'ra disksimon burchakkeskichning ishlov berish

chuqurligi 11 cm dan kichik bo‘lmasligi lozim.

**Pog‘onasimon plug korpuslari orasidagi bo‘ylama masofani plugning sifat ko‘rsatgichlari ta’siri.** Olingan natijalarga (8-rasm) ko‘ra pog‘onasimon plug korpuslari orasidagi bo‘ylama masofani korpuslarning barcha ishlov berish chuqurliklarida plug korpuslari orasidagi bo‘ylama masofani 10 cm dan 50 cm gacha ortishi bilan o‘simplik qoldiqlarini ko‘milish darajasi qabariq parabola qonuniyati bo‘yicha avval ortgan, so‘ngra esa kamaygan. Plugning 20, 23 va 26 cm ishlov berish chuqurliklarida bo‘ylama masofa 40 cm bo‘lganda o‘simplik qoldiqlarini ko‘milish darajasi mos holda 93, 93,7 va 93,7 foizni tashkil qiladi. Korpuslar orasidagi bo‘ylama masofani 20 cm dan kichik qiymatlarida ayrim hollarda plugni tuproq va o‘simplik qoldiqlari bilan tiqilishi yuzaga kelishi ham kuzatildi.  $L_k$  masofani kattalashishi bilan qo‘shni korpuslar orasida palaxsani tiqilish ehtimoli kamayadi, bu esa o‘z navbatida palaxsani korpuslar orasidan o‘tishini va uni aylanish jarayonini yaxshilaydi va mos holda shudgor sifati yaxshilanadi. Bo‘ylama masofa  $L_k=40$  cm bo‘lganda o‘simplik qoldiqlarini ko‘milish darajasi eng yuqori bo‘lgan, so‘ngra esa kamayib borgan. Bu bo‘ylama masofani kattalashishi bilan orqada joylashgan korpus bilan palaxsani aylanish fazasi oldingi korpus bilan palaxsani aylanishiga nisbatan kechikishi kattalashishi bilan izohlanadi. Plug korpuslari orasidagi bo‘ylama masofani 10 cm dan 50 cm gacha ortishi bilan o‘rkachlarning balandligi qabariq parabola qonuniyati bo‘yicha avval kamaygan, so‘ngra esa ortgan. Bo‘ylama masofa 33,33-43,2 cm oralig‘ida bo‘lganda ishlov berish chuqurligining barcha qiymatlarida o‘rkachlarning balandligi 5 cm dan kichik, ya’ni agrotexnik talablar bajariladi. Shu oraliqda qo‘shni korpuslar bilan palaxsalarni navbatma-navbat o‘z egati chegarasida talablar darajasida ag‘darilishi bilan izohlaniladi. Har uchala ishlov berish chuqurliklarida korpuslari orasidagi bo‘ylama masofani 10 cm dan 40 cm gacha ortishi bilan qurilmaning tortishga qarshiligi botiq parabola qonuniyati bo‘yicha kamaygan.  $L_k$  masofaning 40 cm dan yuqori qiymatlarida deyarli o‘zgarmagan.



**8-rasm. O‘simplik qoldiqlarini ko‘milish darajasi ( $K_u$ ), shudgor yuzasi notekisliklar balandligi ( $U_n$ ) hamda qurilmaning tortishga qarshiligi ( $R$ ) ni pog‘onasimon plug korpuslari orasidagi bo‘ylama masofa ( $L_k$ ) ga bog‘liq ravishda o‘zgarish grafigi**

Keltirilgan ma'lumotlardan ko‘rinib turibdiki, talab darajasidagi shudgor sifatini ta’minlash uchun korpuslar orasidagi bo‘ylama masofa 40 cm dan kichik bo‘lmasligi lozim.

Ko‘p omilli eksperimentlar Xartli-4 rejasi bo‘yicha o‘tkazildi. Bunda asosiy omillar sifatida korpuslar orasidagi bo‘ylama masofa ( $X_1$ ), disksimon burchakkeskich va korpus orasidagi bo‘ylama ( $X_2$ ), ochiq egat kengligi ( $X_3$ ) va agregatning ish tezligi ( $X_4$ ) qabul qilindi.

Ko‘p omilli eksperimentlarni o‘tkazishda baholash mezoni sifatida o‘simlik qoldiqlarini ko‘milishi darajasi ( $Y_1$ ), shudgor yuzasidagi notekisliklar balandligi ( $Y_2$ ) hamda qurilmaning tortishga qarshiligi ( $Y_3$ ) qabul qilindi.

Tajribalarda olingan natijalar bo‘yicha baholash mezonlarini adekvat ifodalaydigan quyidagi regressiya tenglamalari olindi:

– o‘simlik qoldiqlarini ko‘milishi darajasi bo‘yicha, %

$$Y_1 = 93,641 - 1,347X_1 + 2,002X_2 - 1,198X_3 + 2,503X_4 - 3,238X_1^2 + \\ + 0,849X_1X_2 + 0,619X_1X_3 + 0,592X_1X_4 + 1,048X_2^2 + 0,634X_2X_3 - \\ - 0,846X_2X_4 - 2,999X_3^2 - 0,976X_3X_4 + 1,096X_4^2; \quad (12)$$

– shudgor yuzasi notekisliklar balandligi bo‘yicha, cm

$$Y_2 = 4,791 + 0,190X_1 - 0,252X_2 + 0,200X_3 - 0,200X_4 + 0,656X_1^2 - \\ - 0,050X_1X_3 + 0,157X_2^2 + 0,075X_2X_3 - 0,025X_2X_4 + \\ + 0,309X_3^2 - 0,073X_3X_4 + 0,109X_4^2; \quad (13)$$

– tortishga qarshilik bo‘yicha, kN

$$Y_3 = 9,632 - 0,225X_1 - 0,712X_2 - 0,505X_3 + 1,350X_4 - 0,043X_1X_2 + \\ + 0,094X_1X_3 + 0,044X_1X_4 + 0,361X_2^2 - 0,288X_2X_3 + 0,151X_2X_4 + \\ + 0,204X_3^2 + 0,287X_3X_4 + 0,602X_4^2. \quad (14)$$

Olingan regressiya tenglamalarining tahlilidan ko‘rinib turibdiki, barcha omillar baholash mezonlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Regressiya tenglamalari  $Y_1$  mezon, ya’ni o‘simlik qoldiqlarini ko‘milishi darajasi 90 foizdan kam bo‘lmashigi,  $Y_2$  mezon, ya’ni notekisliklar balandligi 5 cm katta bo‘lmashigi hamda  $Y_3$  mezon, ya’ni qurilmaning tortishga qarshiligi minimal qiymatga ega bo‘lishi shartlaridan kelib chiqib, MS Excel va PLANEX dasturlari bo‘yicha birgalikda yechildi.

Olingan natijalar bo‘yicha agregat 1,7-2,2 m/s ish tezliklarda kam energiya sarflagan holda talab darajadagi ish sifatini ta’minlashi uchun uning korpuslar orasidagi bo‘ylama masofa 47,83-49,65 cm, disksimon burchakkeskich va korpus orasidagi bo‘ylama masofa 19,23-19,49 cm, ochiq egat kengligi 5,58-6,80 cm oralig‘ida bo‘lishi lozim. Omillarning ushbu qiymatlarida o‘simlik qoldiqlarini ko‘milish darajasi 90,15-96,62%, shudgor yuzasi notekisliklar balandligi 4,28-4,71 cm ni, tortishga qarshiligi 8,2-11,11 kN ni tashkil etdi.

Dissertatsiyaning “Disksimon burchakkeskichli pog‘onasimon plugning xo‘jalik sinovlari natijalari va uning iqtisodiy ko‘rsatkichlari” deb nomlangan to‘rtinch bobida disksimon burchakkeskichli pog‘onasimon plug tajriba nusxasining qisqacha texnik tavsifi, dala sinov natijalari va uning iqtisodiy samaradorligi keltirilgan.

Sinovlarda ishlab chiqilgan egatsiz tekis shudgorlaydigan disksimon

burchakkeskichli pog‘onasimon plugning tajriba nusxasi belgilangan texnologik jarayonni ishonchli bajardi va ish ko‘rsatkichlari unga qo‘yilgan talablarga to‘liq mos keldi.

Disksimon burchakkeskichli egatsiz tekis shudgorlaydigan pog‘onasimon plugning texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarini aniqlash bo‘yicha o‘tkazilgan hisoblar ushbu plugini shudgorlashda qo‘llanilganda bir gektar yerga ishlov berish uchun sarflanadigan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xarajatlar 14,68 foizga kamayishini ko‘rsatdi. Bunda bitta plug bo‘yicha yillik iqtisodiy samara 40163759,1 so‘mni tashkil etishi aniqlandi.

## XULOSA

**“Disksimon burchakkeskichli egatsiz tekis shudgorlaydigan pog‘onasimon plug parametrlarini asoslash”** mavzusidagi texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalari asosida quyidagi xulosalar taqdim etiladi:

1. O‘tkazilgan tahlillar egatsiz tekis shudgorlashda qo‘llaniladigan mavjud pluglar va burchakkeskichlarining konstruktiv xususiyatlari asosida disksimon burchakkeskichli egatsiz tekis shudgorlaydigan pog‘onasimon plugning konstruksiyasini ishlab chiqish imkonini yaratdi.
2. Egatsiz tekis shudgorlaydigan pog‘onasimon plug ramasiga disksimon burchakkeskichlar, yo‘naltiruvchi plastinali o‘ngga ag‘daruvchi korpuslar yakka tartibda va ketma-ket joylashtirish uni ixcham va osma etib tayyorlash imkonini berdi.
3. Eksperimental tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, minimal energiya sarf qilingan holda talab qilingan texnologik jarayonni bajarish uchun disksimon burchakkeskichning ishchi yuzasi korpuslar bilan palaxsani ag‘darilish tomoniga qaratilgan bo‘lishi lozim.
4. Disksimon burchakkeskichli egatsiz tekis shudgorlaydigan pog‘onasimon plugning burchakkeskichi sferik disk turida bo‘lib, uning diametri 480 mm, harakat yo‘nalishiga nisbatan o‘rnatish burchagi 33-35° oralig‘ida va tikka nisbatan o‘rnatish burchagi 8-10° oralig‘ida, ishlov berish chuqurligi esa 10,45-13 cm bo‘lganda kam energiya sarflagan holda talab darajasida tekis shudgorlashni ta’minlaydi.
5. Eksperimental tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, minimal energiya sarf qilingan holda talab qilingan texnologik jarayonni bajarish uchun pog‘onasimon plug korpuslari orasidagi bo‘ylama masofa 47,83-49,65 cm oralig‘ida, disksimon burchakkeskich va korpus orasidagi bo‘ylama masofa 19,23-19,49 cm oralig‘ida va ochiq egat kengligi 5,58-6,80 cm oralig‘ida bo‘lishi lozim.
6. O‘tkazilgan tadqiqotlar asosida ishlab chiqilgan disksimon burchakkeskichli egatsiz tekis shudgorlaydigan pog‘onasimon plug belgilangan texnologik jarayonlarni ishonchli bajardi va uning ish ko‘rsatkichlari agrotexnika talablari va texnik topshiriqqa to‘liq mos keldi.
7. Disksimon burchakkeskichli egatsiz tekis shudgorlaydigan pog‘onasimon

plugni qo'llash amaldagi pluglarga nisbatan dalalarni egatsiz tekis shudgorlashda bir gektar maydonga sarflanadigan to‘g‘ridan-to‘g‘ri (ekspluatatsion) harajatlarni 14,68 foizga kamaytirish va buning evaziga bitta plugdan yiliga 40163759,1 so‘m iqtisodiy samara olish imkonini berdi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/30.06.2020.Т.111.02  
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ КАРШИНСКОМ  
ИНЖЕНЕРНО-ЭКОНОМИЧЕСКОМ ИНСТИТУТЕ  
КАРШИНСКИЙ ИНЖЕНЕРНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЙ  
ИНСТИТУТ**

---

**ЧОРИЕВА ДИЛСАБО НОРМАМАТОВНА**

**ОБОСНОВАНИЕ ПАРАМЕТРОВ СТУПЕНЧАТОГО ПЛУГА ДЛЯ  
ГЛАДКОЙ ПАХОТЫ С ДИСКОВЫМ УГЛОСНИМОМ**

**05.07.01 – Сельскохозяйственные и мелиоративные машины. Механизация  
сельскохозяйственных и мелиоративных работ**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)  
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

**Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерства высшего образования, науки и инновации Республики Узбекистан за номером В2023.2PhD/T3745.**

Диссертация выполнена в Каршинском инженерно-экономическом институте.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме) размещен на веб-странице Научного совета по адресу [www.qmii.uz](http://www.qmii.uz) и Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)).

**Научный руководитель:**

**Маматов Фармон Муртозевич**  
доктор технических наук, профессор

**Официальные оппоненты:**

**Мусурмонов Аззам Турдиевич**  
доктор технических наук, доцент

**Нормирзаев Абдукаюм Рахимбердиевич**  
кандидат технических наук, доцент

**Ведущая организация:**

**Бухарский институт управления  
природными ресурсами при национальном  
исследовательском университете  
«ТИИИМСХ»**

Защита диссертации состоится **«15» 08 2023 г. в 10<sup>00</sup> часов** на заседании Научного совета Ph.D.03/30.06.2020.T.111.02 при Каршинском инженерно-экономическом институте (Адрес: 180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, 225-й. Тел.: (+99875) 221-09-23, факс: (+99875) 224-13-95, e-mail: [qmii@qmii.uz](mailto:qmii@qmii.uz)).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Каршинского инженерно-экономического института (регистрационный номер **46**). Адрес: 180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, 225-й. Тел.: (+99875) 221-09-23, факс: (+99875) 224-13-95, e-mail: [qmii@qmii.uz](mailto:qmii@qmii.uz).

Автореферат диссертации разослан **«4» 08 2023 года.**

(Протокол рассылки № **30** « **4** » **08** 2023 года).



**И.Т.Эргашев**

Заместитель председателя научного совета по присуждению  
ученых степеней, д.т.н., профессор

**Д.Ш.Чуянов**

Ученый секретарь научного совета по присуждению  
ученых степеней, д.т.н., профессор

**З.Л.Батиров**

Председатель научного семинара при научном совете  
по присуждению ученых степеней, д.т.н., доцент

## **ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))**

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В мире одно из ведущих мест занимает применение энерго-ресурсосберегающих и высокопроизводительных технических средств и орудий для основной обработки почвы. Если учесть, что «В мировом масштабе площадь пахотных земель составляют более 1,87 млрд. гектаров»<sup>1</sup>, то требуется внедрение в практику энерго- и ресурсосберегающих машин и орудий для основной обработки почвы с высоким качеством работы и производительностью. В этом аспекте особое значение имеет освоение производства и применение плугов для гладкой безбороздной вспашки.

В мире ведутся научно-исследовательские работы, направленные на разработку новых научно-технических основ ресурсосберегающих технологий основной обработки полей и технических средств для их осуществления. В частности, можно указать работы, направленные на создание, разработку, обоснование технологического процесса работы и обоснование параметров плугов гладкой вспашки и их рабочих органов. В этом аспекте особое внимание уделяется на разработку ступенчатого плуга для гладкой безбороздной вспашки, оборудованного с дисковыми углоснимами, а также обоснованию его технологического процесса работы и параметров.

